



**QARSHI DAVLAT  
TEXNIKA UNIVERSITETI**

# **INNOVATSION IQTISODIYOT**

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

# **ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА**

Научно-практический электронный журнал

# **THE INNOVATION ECONOMY**

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 MAXSUS SON

**INNOVATSION IQTISODIYOT: MUAMMO, TAHLIL VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI 2-XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN  
materiallari asosida tayyorlangan**



@QMI\_Instituti



Qarshi shahri,  
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



[www.kstu.uz](http://www.kstu.uz)  
[www.ojs.qmii.uz](http://www.ojs.qmii.uz)

Meva-sabzavot kooperatsiyalarini tashkil etishdagi iqtisodiy imkoniyatlar .....	247
<i>Fayziyeva Shirin Shodmonovna</i>	
Anor yetishtirishda ishlab chiqarish samaradorligi tushunchasi, turlari va ko'rsatkichlari .....	254
<i>Abbos Jumanazarovich Irgashev</i>	
Anor yetishtirish samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar .....	261
<i>Abbos Jumanazarovich Irgashev</i>	
Минтақа саноат корхоналарида иқтисодий ўсишга таъсир этувчи омиллар таҳлили .....	266
<i>Рахматулла Худирович Эргашев</i>	
Мintaqaviy oziq-ovqat xavfsizligini o'lchish va baholashning metodolik asoslari .....	274
<i>Kusainov X.X., Kusainova L.I.</i>	
Hududlarda "yashil iqtisodiyot"ni barqaror rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari .....	286
<i>Xo'janova Gulshoda Otamurodovna</i>	
Kambag'allikni qisqartirishda aholi umumiy .....	291
daromadlarining ahamiyati .....	
<i>Azimova Hulkar Egamberdiyevna</i>	
O'zbekiston sanoatiga ekologik texnologiyalarni joriy qilishning iqtisodiy samaradorligi .....	297
<i>Rustamova Sarvinoz Azizbek qizi</i>	
Cho'l-yaylov chorvachiligini barqaror rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar: iqtisodiy va tibbiy ahamiyati .....	300
<i>Tangirov Abduxoliq Egamovich</i>	
Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish masalalari .....	307
<i>Olimova Nodira Xamrakulovna</i>	
O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va muqobil energiya manbalarini joriy etishning o'ziga xos xususiyatlari .....	312
<i>Abdumutalov Shohjahon Bahodir o'g'li</i>	
Milliy sanoat hududlarini yaratishda xalqaro tajribaning qo'llanilishi va zamonaviy yechimlar .....	318
<i>Ortiqov Avazbek Bahromjon o'g'li</i>	
O'zbekiston va Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi: rivojlanish istiqbollari va mumkin bo'lgan tahdidlar .....	323
<i>Djuraboyeva Diyora Muzaffar qizi</i>	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini ta'minlashda klaster tizimini joriy qilish mexanizmlari .....	328
<i>Eshev Alibek Sabirovich, Qurbonova Zarina Xusan qizi</i>	
<i>Tursunova Durshoda Nizomiddin qizi, Davronova Feruza Shavkat qizi</i>	
Surxondaryo viloyatida 2010-2024 yillardagi sanoat mahsulotining iqtisodiy statistik tahlili .....	335
<i>Ismoilov Davronbek Ilxomjon o'g'li</i>	
Korxonalarda ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari .....	341
<i>Sayyora Nasimovna Xamrayeva, Muxammadjon Toshtemirovich Uzaqov</i>	
Mintaqada ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari .....	346
<i>Alimova Munisa Yulchiyevna, Normurodova Munisa Ilhom qizi</i>	
Mintaqada mehnatga layoqatli yoshdan katta aholiga xizmat ko'rsatish sifatini baholash .....	350
<i>Ochilova Nargiza Akramovna</i>	
Mintaqa xizmat ko'rsatish sohasida o'zini-o'zi band qilish orqali kambag'allikni kamaytirishning muhim jihatlari .....	354
<i>Azimova Hulkar Egamberdiyevna</i>	
"Yashil iqtisodiyot"da ekologik barqarorlikni shakllantirish va uning sabablari .....	360
<i>Ochilova Nargiza Akramovna, Jonuzoqov Nurbek Berdimurodovich</i>	
Dorivor o'simliklar yetishtirishda innovatsion agrotexnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samarasi .....	364
<i>Xujakulova Nigora Rustamovna, Mardanov Akmal Shuxratovich</i>	

# Kambag'allikni qisqartirishda aholi umumiy daromadlarining ahamiyati

Azimova Hulkar Egamberdiyevna

## Значение общего дохода для сокращения бедности

Азимова Хулкар Эгамбердиевна

## The importance of total income in poverty reduction

Azimova Hulkar Egamberdiyevna

Received: October 14, 2025 Revised: October 16, 2025 ■ Accepted: October 19, 2025 ■ Published Online: November 1, 2025

- **Annotatsiya:** Maqolada aholi turmush farovonligini ta'minlashda, aholi umumiy daromadlarining ahamiyati, daromadlar darajasini oshirish bo'yicha olib borilgan islohotlarning ta'siri natijasida ijobiy ahamiyati asoslangan bo'lib, hududlar bo'yicha dinamikasi ko'rsatib berilgan. Shuningdek, aholi farovonligi darajasi uzluksiz o'zgarib turuvchi ko'rsatkichlari, hududlarda aholi farovonligini takomillashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan dasturlarning monitoringini olib borish, xorij tajribasidan amaliy foydalangan holda hududlarda korporativ tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari ochish, aholi daromadini ko'paytirish va mahalliy byudjetga qo'shimcha mablag' tushirish imkonini berishi, hududlarda ko'chma maslahat shaxobchalarini tashkillashtirish hamda shu orqali hududlardagi chekka qishloqlarda faoliyat olib borish va imtiyozdan oqilona foydalanish huquqiy bazasi bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish, aholi farovonligini ta'minlashga qaratilgan imtiyoz va engilliklardan foydalanish jarayonida sun'iy to'siqlar paydo bo'lmasligini qattiq nazoratga olishni, hududlarda yangi ish o'rinlarni tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash orqali oilalarning daromadlarini oshirishga yanada kengroq imkoniyat yaratish kerakligi tahlil qilingan.
- **Kalit so'zlar:** Aholi turmush farovonligi, aholi turmush darajasi, ijtimoiy siyosat, tadbirkorlik, tadbirkorlik faoliyati, oilaviy tadbirkorlik, xususiy mulk, real daromadlar, nominal daromadlar, umumiy daromadlar.
- **Аннотация:** В статье акцентируется внимание на значении общих доходов населения в обеспечении благосостояния населения, в результате влияния реформ на повышение уровня доходов, с учётом динамики регионов. Также проведён мониторинг реализации программ в целях повышения благосостояния населения, развития корпоративного предпринимательства в регионах с практическим использованием зарубежного опыта, создания новых рабочих мест, увеличения доходов местного населения, позволяющих привлечь дополнительные средства. выделенные из бюджета, организацию мобильных консультационных отделений в регионах и тем самым проанализировано проведение мероприятий в отдалённых селах районов и проведение разъяснительной работы по правовым основам рационального использования льгот, направленных на обеспечение благосостояния населения, а также необходимости строгого контролирования

возникновения искусственных барьеров, создании более широкой возможности увеличения доходов семей за счет создания новых рабочих мест в регионах и обеспечения занятости населения.

- **Ключевые слова.** общественная жизнь, уровень жизни, социальная политика, предпринимательство, деловая активность, семейный бизнес, частная собственность, реальные доходы, номинальный доход, общий доход.
- **Annotation:** The article focuses on the importance of the general income of the population in ensuring the well-being of the population, as a result of the impact of the reforms on increasing the level of income, and shows the dynamics of the regions. Also, monitoring of the programs implemented in order to improve the welfare of the population, development of corporate entrepreneurship in the regions with the practical use of foreign experience, creation of new jobs, increase of the population's income and local to allow additional funds to be allocated to the budget, to organize mobile counseling branches in the regions and thereby carry out activities in the remote villages of the regions and to carry out explanatory work on the legal basis of the rational use of the privilege, to use privileges and eases aimed at ensuring the well-being of the population it was analyzed that it is necessary to strictly control the occurrence of artificial barriers, to create a wider opportunity to increase the income of families by creating new jobs in the regions and ensuring the employment of the population.
- **Key words:** Well-being of the population, standard of living of the population, social policy, entrepreneurship, entrepreneurial activity, family business, private property, real incomes, nominal incomes, total incomes.

## KIRISH

Iqtisodiyotning yuqori sur'atlar bilan barqaror rivojlantirishga erishilganligi aholi daromadlarini yanada ko'paytirish, insonlarning hayot darajasi va sifatini oshirish uchun mustahkam asos yaratdi. Byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va stipendiyalar, aholi jon boshiga real daromadlar, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlar darajasini oshirishga keng imkoniyatlar yaratildi. Chunki jamiyatning ijtimoiy tabaqalashuv darajasini kamaytirishga alohida e'tibor qaratilayotganligi, sodda qilib aytganda, o'ta boylar ham, o'ta kambag'allar ham bo'lmasligini, aholi o'rtasida ijtimoiy tabaqalashuv darajasini kamaytirish maqsadida samarali islohotlarning olib borilayotganligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada keng ko'lamlil ishlar amalga oshirilmoqda. "2026-yilga borib tadbirkorlik sub'yektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish. Hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish" nazarda tutilgan.[1]. Olib borilayotgan ishlar samarasi natijasida keng ko'lamlil va jamiyatning har bir a'zosini qamrab olishga yo'naltirilganligiga qaramasdan, aholi turmush darajasini yaxshilash, daromadlarni tartibga solish, daromadlar darajasini oshirish va kam ta'minlanganlikning oldini olish kabilar borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan muammolar etarli bo'lib qolmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar o'zgacha ahamiyat kasb etib boradi, unga yangicha yondashuv bir qator dolzarb masalalar: mulk va daromadlar darajasining chambarchas aloqasi, daromadlarning mulkning iqtisodiy funktsiyasi sifatida

aniqlanishi, daromadlar manbai sifatida ishlab chiqarish omili rolini va pul daromadlarining asosiy qismi sifatida ish haqining ahamiyatini tadqiq etish, mehnatga haq to'lashning zamonaviy kontseptsiyasiga yangicha yondashuvlarni asoslash, daromadlarning boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan o'zaro aloqasini tadqiq etish, daromadlarning jamiyat iqtisodiy-ijtimoiy rivojidagi rolini aniqlash, uning jamiyat barqarorligini mustahkamlashdagi ahamiyatini o'rganishni talab qiladi. Darhaqiqat, bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi farovonligini ta'minlash hamda ularning turmush sifatini yaxshilash maqsadida aholi daromadlariga qaratilgan nazariy-metodologik va tashkiliy masalalarni amalga oshirilishi o'ta dolzarb ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Aholi daromadlarini oshirish orqali ularning kambag'allik darajasini kamaytirish masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlarida bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlarining ahamiyati, yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning insonlarning turmush farovonligini yaxshilashga qaratilganligi hamda ijtimoiy masalalarga e'tibor qaratishning zarurati va ularning asosiy tarkibi ko'rsatib o'tilgan. Bozor iqtisodiyoti talablariga asosan aholi daromadlarini bosqichma-bosqich oshirib borishning muhimligi, aholi turmush darajasining xorijiy tajribalari V.I.Vidyapin, A.I.Dobrinina, N.V.Paxomova, A.I.Kuznetsova, D.Kamayev, S.S.Nosova, N.M.Rozanova, A.M.Orexov kabi olimlarning ilmiy ishlari va maqolalarida o'rganilgan. Aholi turmush farovonligini

ta'minlashda aholi daromadlarining iqtisodiy mazmuni, ularning tarkibi, daromadlarning aholi turmush darajasiga ta'siri, daromadlar tengsizligi bo'yicha bildirilgan fikrlar tahlil etilib, tengsizlik va samaradorlik o'rtasidagi nisbat masalalari Q.X.Abduraxmonov, Sh.R.Xolmo'minov, Sh.Sh. Shodmonov, U.V.G'afurov, A.V.Vaxobov, H.P.Abulqosimov, B.K.G'oyibnazarov, Sh.Sh.Shodmonov, U.V.G'ofurov, N.K.Murodova, Q.Muftaydinov, A.A.Qulmatov [2], uy xo'jaliklarining faoliyatini boshqarish mexanizmi muammolari I.U.Ibragimov, R.Xodjaev, F.Q.Shoyusupova, A.Egamberdiyevlarning monografiya, darslik, o'quv qo'llanma, ilmiy-uslubiy ishlari va ilmiy maqolalarida tadqiq etilgan.[3]. Yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning tadqiqotlarida aholi daromadlarini shakllantirishning kontseptual, nazariy va amaliy jihatlarini tahlil etish va bozor iqtisodiyotining qonuniyatiga muvofiq ravishda tatbiq etilishiga qaratilgan. Ta'kidlash joizki, bugungi kunga qadar amalga oshirilgan ilmiy va amaliy tadqiqot ishlari va olib borilgan nazariy izlanishlarga qaramasdan, aynan bugungi global iqtisodiyot sharoitida aholi daromadlari va xarajatlarini keng qamrovli statistik tahlil qilishni takomillashtirish, shuningdek, uy xo'jaliklarining iqtisodiy faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni statistik modellar asosida baholashga qaratilgan masalalar tizimli holda yoritib berilmagan.

## **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Tadqiqot ishida kambag'allikni qisqartirishda aholi umumiy daromadlarining ahamiyatini ochib berish jarayonida induktiv va deduktiv, mantiqiy tahlil, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish usullaridan foydalanildi.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** "Daromad" iqtisodiy faoliyat natijalarini ifodalovchi ko'rsatkich hisoblanib, u serqirra va murakkab mazmunga ega hisoblanadi. Chunki daromad bir vaqtning o'zida biron bir faoliyat natijasida olingan tushumni, pul mablag'larini, natural ko'rinishda olingan mahsulotlarni, shuningdek, iqtisodiy resurslar keltiruvchi nafni va boshqa tushunchalarni ifodalashi mumkin.[4]. Aholi farovonligi darajasining asosiy ko'rsatkichlaridan biri-bu umumiy daromad hisoblanadi. U nafaqat mehnat faoliyati va mustaqil ish bilan bandlikdan, balki mulkdan (foizlar, dividendlar, gonorarlar va boshqalar) hamda transfertlardan (pensiylar, nafaqalar, stipendiyalar, pul o'tkazmalari) olingan daromadlardan ham iborat bo'ladi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan umumiy daromad ma'lum bir hududda (masalan, mamlakatda) aholi tomonidan olingan umumiy daromadning shu hudud aholisi soniga nisbatidir. Bu har bir fuqaroning o'rtacha qancha daromad olishini baholash va turli mintaqalar yoki mamlakatlarning

turmush darajasini taqqoslash imkonini beradi. Bu o'rinda aholining shaxsiy daromadi etakchi o'rinni egallab, aholi shaxsiy daromadini quyidagicha ta'riflarini keltirish mumkin. Shaxsiy daromadlar-bu inson tomonidan pul va tabiiy shaklda olinadigan, ular tomonidan turmushning muayyan darajasini ta'minlash uchun mablag'lar majmuidir. Agar "Shaxsiy daromadlar" ta'rifida biz ularning shakllanish manbalarini ifodalasak, unda quyidagicha namoyon bo'ladi. Shaxsiy daromadlar fuqarolarning mehnat faoliyatida ishtiroki, ishlab chiqarish va boshqa boyliklarning istalgan turiga egalik qilish va undan foydalanish, shuningdek, ushbu davlatning qonuniy hujjatlariga muvofiq ijtimoiy transfertlar to'lovi qo'yilgan ijtimoiy guruhlarga tegishlilik bilan bog'liq barcha pul va tabiiy tushumlar yig'indisini tashkil etadi.Ya'ni, daromad umumiy tushuncha bo'lib,uning tarkibida aholi daromadlari etakchi o'rinniegallaydi. Aholi daromadlari ma'lum vaqt oralig'ida ular tomonidan olingan pul va natural shakldagi tushumlar miqdorini anglatadi. Aholi pul daromadlari ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromad, nafaqa, pensiya, stipendiya, mulkdan foiz, dividend, renta shaklida olinadigan daromadlar, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk, qishloq xo'jalik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlari sotishdan va har xil xizmatlar ko'rsatishdan kelib tushadigan daromadlarni o'z ichiga oladi.Etarli darajada ta'minlangan aholi daromadlarining mavjudligi aholi farovonligini yuksaltiradi hamda muhim hisoblangan ijtimoiy vazifalarni hal qilinishiga zaminyaratadi. Aholi daromadlari deganda,uning tarkibida etakchi o'rinni egallovchi ish haqini oshirib borish,bozor munosabatlari sharoitida ijtimoiy tabaqalashuvni pasaytirish,inflyatsiya darajasi va narx barqarorligiga erishish kabi davlatning muhim vazifalarini bajarilishini ta'minlash bilan bir qatorda xufyona iqtisodiyotga chek qo'yish masalasi bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Iqtisodchi olim Q.H.Abduraxmonov, Sh.R.Xolmo'minovning fikriga ko'ra, daromadlar shakllanishi va tabaqalanishiga ko'ra: ijtimoiy-iqtisodiy erkinlikka bo'lgan intilish; daromad keltiruvchi mulkka ega bo'lish,uni tasarruf etish va ishlatish; bozor ishtirokchilarining imkoniyat darajasida kam resurs sarflab ko'proq daromad olish va farovon hayot kechirishga bo'lgan harakati kabi iqtisodiy erkinlik omillari orqali ta'sir ko'rsatadi. Bozor iqtisodiyoti talablariga binoan, aholi daromadlari o'rtasida tabaqalashuv yuzaga kelishi tabiiy hol hisoblanadi. Bugungi kunda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida ijtimoiy siyosat nuqtai nazaridan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Mehnatga haq to'lash tizimini takomillashtirish, o'rtacha oylik ish haqi miqdorini bosqichma-bosqich va muttasil tarzda oshirib borish, uning aholi yalpi daromadlaridagi ulushining pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik va uni barqaror darajada saqlanib qolishini ta'minlash chora-tadbirlari aholi daromadlarining tez sur'atlar bilan o'sishida muhim

va sezilarli rol o'ynaydi. Bozor iqtisodiyoti teng imkoniyatlar beradi, ammo bu imkoniyatlardan foydalanish turli xil bo'lganidan ob'ektiv tarzda aholining turmush darajasi farqlanadi va bu daromadning har xilligida namoyon bo'ladi. Daromadning ko'p yoki oz bo'lishi eng avvalo insonlarning mehnat qilish qobiliyatiga, ularning xatti-harakatiga bog'liq bo'lib, ularning daromadlar darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aholi daromadlarini izohlar ekanmiz, ularning mavjud turlarini ma'lum belgilar bo'yicha quyidagicha tasniflanishini ko'rishimiz mumkin[5]. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlari tarkibida bir qator o'zgarishlar ro'y beradi. Mulkchilik munosabatlarining tubdan isloh qilinishi, xo'jalik yuritish va mehnat bozori va sarmoya yangi shakllarining yuzaga kelishi aholi daromadlari tarkibida tarkibiy o'zgarishlarni yuzaga keltirishini belgilaydi. Daromadlarning tarkibiy qismlari miqdor va sifat jihatidan o'zgaradi. Bugungi kunda mazkur masalada fuqaro ixtiyoridagi haqiqiy daromadni optimallashtirish maqsadida soliq tizimida ham ahamiyatga molik ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining 57-58,0 foizga yaqin qismi aholini ijtimoiy himoyalashga hamda ijtimoiy sohani qo'llab-quvvatlashga qaratilganligi, ayni vaqtda mazkur mablag'larning asosiy qismi ta'lim, sog'liqni saqlash, ilm-fan, madaniy sohalarni rivojlantirish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilganligi va aholi turmush farovonligini oshirish masalalari islohotlarimizning asosiy markazida ekanligidan dalolat beradi.

Amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida 2030 yilga qadar yalpi ichki mahsulotni 160 mlrd dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish nazarda tutilgan. Ya'ni, 2030 yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va daromad o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kirish maqsadga muvofiqligi rejalashtirilgan. [6].

Milliy iqtisodiyotning rivojlanishi ko'proq jamiyatdagi tadbirkorlik faoliyatiga bevosita bog'liq hisoblanadi. Chunki tadbirkorlar bozor talablariga tezda moslashuvchan bo'lib, ular xalqimizni turli iste'mol tovarlari va aholining ish bilan bandligini ta'minlashdek muhim masalani hal etilishida imkon yaratadi, ularning daromad olish manbaiga aylanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilib, uning me'yoriy huquqiy asoslari yanada takomillashtirilmoqda.


Bugungi kunda mehnat bozorini, band va ishsiz aholini tarkibiy tahlil qilish, ishsizlarni manzilli aniqlash va ularga amaliy yordam berish, aholi bandligini ta'minlash dasturlarini shakllantirish, kambag'allikni qisqartirish[9] hokim yordamchilari faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Aholi bandligini ta'minlash va daromadini oshirish orqali kambag'allik darajasini qisqartirish

bo'yicha amalga oshiriladigan ustuvor maqsadlarni amalga oshirilishi natijasida 2024-yil 1-noyabrdan e'tiboran Davlat mehnat inspeksiyasi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan mehnat huquqlari va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi qat'iy ta'minlash masalalari, shuningdek 2025-yil 1-martdan boshlab, aholi bandligi to'g'risidagi qonunchilik talablarini bajarmaganligi uchun kameral nazorat o'tkazish vakolati berilishi nazarda tutilgan. Xususan yillar ko'rsatkichlari bo'yicha aholining umumiy daromadlarini tahlil qilganimizda, quyidagi statistik ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin. 2025-yil yakuniga qadar kambag'allikni qisqartirish 6 foizga tushirilishi lozimligi, shuningdek 2025-yilda 1 million nafar aholini kambag'allikdan chiqarish davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining eng muhim ustuvor vazifasi sifatida nazarda tutilishi rejalashtirilganligidan anglash mumkinki aholi farovonligi dolzarb ahamiyatga ega ekanligini belgilaydi.

Aholi jon boshiga daromadlarning eng yuqori real o'sishi Toshkent shahri (+15,4%), Navoiy (7,9%) va Toshkent (6,4%) viloyatlarida qayd etildi. Surxondaryo, Namangan va Farg'ona viloyatlarida aholining real daromadlari biroz o'sdi mos ravishda 0,2%, 0,5% va 1,1%. Hududlar o'rtasidagi tabaqalanish kuchaydi. Bir yil davomida eng boy uchta va eng kambag'al uchta hudud orasidagi aholi jon boshiga daromadlar farqi 2,3 baravardan 2,4 barobargacha oshdi. Taqqoslash uchun: 2020-yilda bu farq 2,15 baravarga teng edi. Toshkent shahri va eng kambag'al mintaqasi (Namangan viloyati) o'rtasidagi daromadlar farqi 3,32 dan 3,6 barobargacha oshdi.

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib ko'rinib turibdiki, hududlar bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlarining ko'rsatkichlari quyidagicha bo'lib, ya'ni Qoraqalpog'iston Respublikasi (16 mln 858 ming so'm), Navoiy viloyatida (38 mln 112 ming so'm) va Jizzax viloyatlarida (19 mln 435 ming so'm), Sirdaryo viloyatida (19 mln 35 ming so'mni), Toshkent viloyatida (25 mln 123 ming so'mni), Toshkent shahrida (60 mln 594 ming so'mni), Namangan viloyatida 16 mln 849 ming so'mni) tashkil etganligi qayd etilganligi kuzatilgan.

Ushu ma'lumotlarni quyidagicha izohlash mumkinki, aholining real umumiy daromadlari-aholining nominal umumiy daromadlarini tegishli davr uchun iste'mol narxlarini indeksiga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi. Aholining umumiy daromadlari hajmini sezilarli darajada o'sishi asosan umumiy daromadlar tarkibida 29,7 foiz ulushga ega bo'lgan yollanma ishchilarning daromadlari va 34,3 foiz ulushga ega mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar hamda 26,7 foizni tashkil etuvchi transfertlardan olingan daromadlarning sezilarli o'zgarishi hisobiga yuzaga kelgan hisoblanadi.



1-rasm. 2024 yilning yanvar-dekabr oylari bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi (ming so'mda) [7].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri aholi farovonligini ta'minlash, ularning turmush sifatini oshirish hamda ijtimoiy soha tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga erishish hisoblanadi. Yurtimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar va kuchli ijtimoiy siyosatning asosiy mohiyati inson manfaatlarini himoya qilish, aholi daromadlarini optimallashtirish natijasida ijobiy qulayliklar yaratilishini ta'minlaydi.

Ta'kidlash lozimki, aholi daromadlarining darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning zaruriy ehtiyojini qondirish, salomatligini saqlash, dam olishini tashkil etish, ma'lumot olish, bo'sh vaqtlarini madaniy tarzda o'tkazishi bo'yicha imkoniyatlari shunchalik ko'p bo'ladi. Yuqorida ko'rib chiqilgan ma'lumotlar asosida aytish mumkinki, aholi farovonligini ta'minlashda aholi daromadlarining g'oyat muhim ahamiyatga ega ekanligini o'rgangan holda, xususan, tahliliy materiallar mazmuniga asoslanib quyidagi xulosa va takliflarni ilgari surish mumkin.

Birinchidan, aholi farovonligi darajasi uzluksiz o'zgarib turuvchi ko'rsatkich hisoblanadi, uning sabablaridan biri sifatida aholi daromadlari tarkibida ish haqi, pensiya, stipendiyalar miqdorining bosqichma-bosqich oshirib borilayotganligini keltirish mumkin, shuningdek hududlarda aholi farovonligini takomillashtirish maqsadida amalga

oshirilayotgan dasturlarning monitoringini olib borish o'zining ijobiy samarasini beradi.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida ishchi kuchiga talab va taklifni tartibga soluvchi rivojlangan bandlik xizmati tashkilotlari tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, xorij tajribasidan amaliy foydalangan holda xududlarda korporativ tadbirkorlikni rivojlantirish zarur. Misol uchun xorij mamlakatlaridan Angliya, Daniya, Niderlandiya va boshqa Evropa mamlakatlarida aynan shu sohani rivojlantirish hududlar iqtisodiyotini va aholisi daromadini oshishiga imkon yaratgan[8].

Ikkinchidan, hududlarda yangi ish o'rinlari ochish, aholi daromadini ko'paytirish va mahalliy byudjetga qo'shimcha mablag' tushirish imkonini beradi. Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda tadbirkorlik sohalari uchun keng imkoniyatlar amalda qo'llanilayotgan bo'lsa-da, bu tadbirlar hududlarda samarali tashkil etilmaganligi ko'rinib qolmoqda. Shu maqsadda hududlarda ko'chma maslahat shaxobchalarini tashkillashtirish hamda shu orqali hududlardagi chekka qishloqlarda faoliyat olib borish va imtiyozdan oqilona foydalanish huquqiy bazasi bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish zarur bo'ladi.

Uchinchidan, qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish hisobiga qishloq aholisining tadbirkorlik bilan shug'ullanish borasidagi fikrlarini jonlantirishni, aholi farovonligini ta'minlashga qaratilgan imtiyoz va engilliklardan foydalanish jarayonida sun'iy to'siqlar paydo

bo'lmasligini qattiq nazoratga olishni, hududlarda yangi ish o'rinlarni tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash orqali oilalarning daromadlarini oshirishga yanada kengroq imkoniyat yaratish kerak bo'ladi.

#### Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Azimova Hulkar Egamberdiyevna Qarshi davlat texnika universiteti "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasida katta o'qituvchisi / Азимова Хулкар Эгамбердиевна, старший преподаватель кафедры «Учет и аудит» Каршинского государственного технического университета / Azimova Hulkar Egamberdiyevna, Senior Lecturer, Department of "Accounting and Auditing", Karshi State Technical University

► [azimovakhulkar@gmail.com](mailto:azimovakhulkar@gmail.com)

■ 0009-0001-2902-6736

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli Farmoni.
- [2]. Abdurahmonov Q.H. "Mehnat iqtisodiyoti" Darslik.- T., "Mehnat" 2009 yil.441b.; Abdurahmonov Q.H.,

- Xolmo'minov Sh.R. "Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi" O'quv qo'llanma, T.:TDIU 2004.58 b.;
- [3]. Abulqosimov H.P., Qulmatov A.A. "O'zbekistonda kichik biznes sohasida oilaviy tadbirkorlikning o'rnini va uni rivojlantirish yo'llari". Monografiya. – T.: Universitet, 2015. 126 bet.
  - [4]. Murodova N.K. Kichik biznes sub'yektlarining tadbirkorlik faoliyatini oshirish yo'nalishlari. Dis.iqt.fan. nomz.-T., 2008.-145 bet.
  - [5]. G'oyibnazarov B.K. Aholi turmush darajasini statistik baholash. - T.: Fan nashriyoti, 2005. -125 bet.
  - [6]. "O'zbekiston-2030" Strategiyasi. 11.09.2023 yil. PF-158-sonli
  - [7]. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari
  - [8]. Dari T, Oyuna B. The Chinese Model of Modernization- Nature, Historical Stages, Sociocultural Characteristics. Procedia-Soc Behav Sci. 2015;166:670-674. doi:10.1016/j.sbspro.2014.12.594.
  - [9]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentyabrdagi "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush faravonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida" gi PF-143-son Farmoni